



FARZAND TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLAR VA TARBIYANING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sayliyeva Umida

GulPI talabasi

Anatatsiya. *Ushbu maqolada farzand tarbiyasi, unga qo'yiladigan talablar, jamiyatga milliy qadriyat asosida shakllangan barkamol avlodni chiqarish, shuningdek tarbiyaning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish va yosh oilalarga to'g'ri tarbiyalash jarayonlarini targ'ib qilishning muhim usullari keyin bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: Tarbiya, psixologiya, qadr-qimmat, milliy an'analar, jarayon, vosita, usul, jarayon, tahlil, natija, faraz, ijtimoiy himoya, pedagogik yondashuv, xususiyatlar.

Abstract. *This article discusses the upbringing of children, the requirements for it, the contribution of society to the upbringing of a harmonious generation formed on the basis of national values, as well as the pedagogical and psychological aspects of upbringing. Study and analyze the characteristics and broadly describe important methods for promoting proper parenting processes in young families.*

Keywords: *psychology, values, national traditions, process, tool, method, process, analysis, result, hypothesis, social, protection, pedagogical approach, features.*

Butun dunyo hayoti hozirgi davrda shiddat bilan rivojlanayotgan vaqtda inson uchun eng dolzarb muammolarni sanab sanog'iga yetish qiyin. Texnikalar internet tarmoqlari ham tezkor daqiqasiga shakllanib boryapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Atrof muhitdagi har qanday o'zgarish insonga ta'sirini o'tkazmasdan va o'z domiga tortmasdan qolmaydi. Har qanday shaxs uchun bu hayotda to'g'ri hayot tarzini, imkoniyatlarni yaratishni va har bir kutilmagan, tasodifiy holatlar uchun ma'lum bir qarorlar qabul qilish doimo ham oson bo'lavermaydi. Hayotda to'g'ri qaror qabul qilishni asosan yoshlikdan o'rgatib borish kerak. Yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash eng munosib munosib tanlov.

Umuminsoniy qadriyatlar – jahondagi barcha odamlar, xalqlar va davlatlar uchun umumiy qadrlash mezonini hosoblangan, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar tizimini ifoda etadigan tushuncha. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko'lamli va serqirra tushunchadir. U ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt-saodat kabi umumijtimoiy ma'no-mazmun kasb etadigan tushunchalardangina iborat emas. Uni faqat madaniy boyliklar sifatida tushunishni ham maqsadga muvofiq, deb bo'lmaydi. Shu bilan birga, muayyan milliy, etnik va boshqa xususiy qadriyat tizimlari ham umuminsoniy qadriyatlarning o'rnini bosa olmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar tizimi va uning namoyon bo'lish shakllarini tahlil qilish, aslida, tarkibiy qismlari bir-biri bilan dialektik tarzda bog'langan umumiy tizimni, uning asosiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilishdir. Umuminsoniy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida yashayotgan barcha kishilar uchun umumiy bo'lgan tizimni hosil qiladi, boshqa tamoyillar bilan uzluksiz aloqada, zaruriy bog'lanishda



namoyon bo'ladi. Umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllari nisbiy xususiyatga ega, ammo bu nisbiylik doimo ham ko'zga tashlanavermaydi.

Odamlar o'zlari va atrofdagilarning amaliy faoliyatini, biror sohadagi xatti-harakatlarini umuminsoniy qadriyatlar mezonini bilan solishtirib, mulohaza yuritadi, xulosa chiqaradi, baho beradi. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi talablari har bir tarixiy birlikning tarixiy rivojlanish mahsuli ekani, barcha insonlarning manfaatlarini, haq-huquqlari, orzu-umidlari hisobga olinishi darkorligini ko'rsatadi. Bu insonning tabiiy-tarixiy haq-huquqlari uning yashash va umr kechirish huquqining tabiiyligi va muqaddasligini to'liq e'tirof qilinishini anglatadi. Ana shu sababga ko'ra, istiqbol yillarida mamlakatimizda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyiliga nihoyatda katta e'tibor berilmoqda. Bu qadriyatlar jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va tub o'zgarishlarning asosiy mezoniga aylangani bejiz emas. Yosh avlodni voyaga yetkazish ularni o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy qadriyat va an'alarimiz asosida tarbiyalash eng muhimi bolalarni ongini chetdan kirib kelayotgan g'ayritabiiy, ommaviy bo'lgan turli xil bekorchi texnikalar bilan band qilmasdan har bir vaqtni qadriga yetib unumli foydalanishni o'rgatish ham yosh avlodni barkamol shaxs darajasiga olib chiqish uchun muhim ahamiyatga egadir. Bolalikdan boshlab oilada ota-ona tomonidan o'rgatiladigan ko'pgina milliy qadriyatlarimiz mavjud. Masalan. Oilada kattalarni hurmat qilish ularni e'zozlash, chiroyli muomala qilish doimo shirin so'z, shirin zabon bo'lish, kichiklarni izzat qilish, atrofimizdagi insonlarga xushmuomala bo'lishlik asosiy qadriyatlarimizdan biridir. Yangi O'zbekiston ham qadriyat asosida yangidan barpo qilinmoqda jumladan prezidentimizning quyidagi so'zlaridan aytishim mumkin; Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan, deydi Prezident. Yurt boshimiz ham doimo qadriyatlarimizni asrab-avaylashni, ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy merosimizni qarashimizni, qadriyatlarimiz asosida yuksalishimizni har bir nutqlarida takidlab o'tadilar

Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va an'alar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini — oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

Eng avvalo yosh avlodni milliy qadriyat asosida tarbiyalash uchun shu qadriyatlarga har bir insonning o'zi amal qilish va to'g'ri targ'ib qilib borishi darkor. O'zbek xalqining milliy qadriyatlari avloddan avlodga o'tishi uchun kelajak avlod shakllanishi uchun qadriyatlarimiz barchasiga amal qilishi va ular ham o'z avlodlariga mukammal tarzda o'rgatmoqliklari darkor.

Milliy qadriyatlarning negizini urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayram-syillar tashkil etadi. O'zbek milliy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o'zbeklarning o'zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o'zaro hurmat, bir-biriga suyanish va yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik va ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Milliy qadriyatlar o'sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar xosiyatlarni milliy-madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko'rchatkichdir.

Milliy qadriyatlarni tiklash — ularga hozirgi zamonga mos yangi mazmun yangicha ko'rinish kasb etish demakdir. Xuddi shuning uchun yoshlarga milliy an'analarni singdirmoq va ularga to'g'ri shakllantirish har bir shaxsning bugungi kundagi eng oliy burchlaridan biridir. Hozirgi kunda insonlar turli xil internet vositalariga berilib ketishi orqali farzandlarning ham tarbiyasi bilan shug'ullanish bir muncha pasayib qolmoqda. Bunday muammolarga barham berish uchun yosh oilalarni pedagogik va psixologik bilimlarini boyitish va bu bo'yicha ham alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki shaxsning psixologiyasi kuchli bo'lsa hech bir xavfli oqimlarga duchor bo'lmaydi shuning uchun yoshlarga psixologiyani ham to'g'ri va o'rinli tarzda o'rgatish lozim.

Pedagogik psixologiya - ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi — shartsharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish. Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uz-viy bog'liq. Pedagogik psixologiya, asosan, ta'lim psixologiyasi va tarbiya psixologiyasiga bo'linadi. Ta'lim psixologiyasi d a o'quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



o'quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, harakte-ri, qiziqishlari), o'quv predmetlarining o'ziga xos'tomonlari, ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa o'rganiladi. Hozirgi zamon ta'lim psixologiyasida o'quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o'zlashtirish imko-niyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta'minlaydigan tafakkur sifatlarini o'rganish muhim masaladir.

Tarbiya psixologiyasining asosiy vazifasi — maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o'quv materialini mazmunini tanlash, o'quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta'limning har xil bosqichlarida o'qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.[1]

Xulosa qilib aytganda har bir ota-ona va har bir jamiyat,xalq yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga va voyaga yetkazishga ma'suldirlar.O'zbek xalqining boy madaniyati,qadriyat va an'analarini yosh avlod orqali yanada rivojlatirishi,unga yangi hayot baxsh etishi shuningdek ajdodlarga mos avlod bo'lish uchun ham ulardan o'tib kelayotgan qadriyatlarni qadrlab yashashi va hayot tarzida ham keng targ'ib qila olmog'i darkor.Yosh oilalarni ham bilimli va salohiyatli va psixologik bilimlarini ham oshirgan holda to'g'ri tarbiyalab borishi kerak.O'zbek xalqini madaniyati,ma'naviyatini,ilmiy salohiyatini oshirib borish har bir o'zbekning burchidir. O'zbek xalqi qadim qadimdan buyon qadr topgan qadriyatlari,an'analari,milliy liboslari,chiroyli naqshinkor binolari,milliylikka yo'g'rilgan jamiyki uslublari orqali butun dunyoga tanilmoqda,yurtimiz kundan kunga chiroy ochib bormoqda,Turli xil davlatlardan kelgan insonlar ham o'zbek xalqining qadriyat va an'analarning juda go'zal ekanligini,xalqimizning mehmondo'stligini ham doimo e'tirof etishadi.O'zbek xalqiga xos bo'lgan mehmondo'stlik qadriyati ham ajdodlardan avlodlarga yillar mobaynida o'tib,qadr topib kelmoqda. Xalqimizda bir biridan farq qiladigan har biri o'zining ma'nosi hamda o'rniga ega bo'lgan va bo'layotgan,qadrlanib kelayotgan an'analарimiz bor. Har biri yaxshilikka undovchi,go'zallikni ko'rsatib beruvchi,o'zbeklarni dunyoga mashhur va ma'lum qilib keltirgan qadriyat va an'analарimizni o'zbek yoshlari bo'lib biz ham ajdodlarimiz merosini qadrlagan holda ularni yanada chiroyli ado qilishimiz hamda kelajak avlodlarimizga yetib borishi,o'rgatidhimiz uchun ularni to'g'ri bajarishimiz,targ'ib qilshimiz,eskirganlarini yangidan tiklashimiz bularning bari biz uchun sharaflı burchimiz va ajdodlarga mos avlod bo'lganligining kichkina bir nishoni bo'lardi.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham har bir nutqlarida qadriyatlarimiz haqida juda ko'p aytadilar jumladan quyidagi so'zlarida ham qadriyatimizni qanday qadrlash kerakligini aytib o'tadilar;Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat", deydi Shavkat Mirziyoyev .



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Yangi O'zbekistonni yaratishda milliy qadriyatlarimiz unutilgani yoq aksincha bu 2-tamoyil sifatida yanada yangilandi,yaxshilandi desak so'zimizda mubolag'a bo'lmaydi.Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur", deydi Shavkat Mirziyoyev.Prezidantimiz doimo tariximizni chuqurroq o'rganishni, tarixiylicni chuqurroq anglashni, manaviyatimizni yuksaltirish,rivojlantirish uchun ham ajdodlarimizning tarixda qolgan boy ma'naviyatini chuqurroq o'rganishni ham takidlab o'tganlar.Yoshlarning tarbiyali,bilimli,salohiyatli,har tomonlama mukammal,barkamol shaxs bo'lishliklari uchun ham avvalo tarixni bilmog'liklari,ajdodlarining qanday buyuk insonlar bo'lganini his qilgan,bilgan holda ularga mos bo'lgan avlodlar bo'lish uchun ham harakatda bo'lishi, tinmay o'qishi,o'rganishi,uzluksiz ta'lim olishini ta'minlash maqsadida yoshlarga milliy an'analargan yo'g'rilgan boy ma'naviy tarbiyani kuchaytirish darkor.O'zbek xalqining ma'naviyatli, salohiyatli har sohada faol bo'lishlari uchun har bir Zo'bekiston fuqarosi ma'suldir va shunday ulkan marralarni zabt etish uchun doimo harakatdan to'xtamasligi,xalqning madaniy, ma'naviy , ma'rifiy merosini asrab-avaylashi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.
2. Haydarova O.Q.Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. Qarshi, Nasaf, 2008.114 bet.
3. J. Yo'ldoshev. Ta'limimiz istiqloli yo'lida.-T.: «SHarq»,1996.224 b.
4. J.Tulenov, B.Qodirov, Z.G'afurov. Ma'naviy yuksalish sari.T.: «Mehnat»-2000.191.
5. J.Hasanboyev, H.Sariboyev, G.Niyozov, O.Hasanboyeva, M.Usmonboyeva.
6. Pedagogika.O'quv qo'llanma.T.: «FAN»-2006.281.
7. Ibragimov X. I., Abdullayeva SH. A. Pedagogika. O'quv qo'llanma.-T.: «Fan», 2004. 182 b.
8. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika.-T.: «YAngi avlod asri» 2003. 211 b.
9. Majidov A. YOshlarda axloqiy fazilatlar qanday tarbiyalanadi? (Muammo, mulohaza, taklif). «Ma'rifat». 2002. 27- noyabr.
- 10.Mahalla pedagog-tarbiyachisi to'g'risida Nizom, 2002 .
- 11.Manaviyat yulduzlari.-T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001 yil. 407 b.